

## SARATON KASALLIKLARINING ZAMONAVIY DIAGNOSTIKASI VA DAVOLASH USULLARI

**Tolibov Yunusjon G'olib o'g'li**

*226 b – guruh talabasi 2-son davolash fakulteti,  
Toshkent davlat tibbiyot universiteti*

**Shixov Yorbek Ollazarovich**

*Ilmiy rahbar:*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada onkologik kasalliklarning kelib chiqish sabablari, diagnostikasi va zamonaviy davolash usullarini o'rganish. Qolaversa, ularga tegishli tashxislar va kerakli bilim ko'nikmalarini yetkazib berish va ularning ongini boyitish ko'zda tutilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Onkologiya, davolash usullari, terapiya, statistika, kimyo terapiyasi, radio terapiyasi, gen terapiyasi, jarroxlik usullari.*

### KIRISH

Bugungi kunda saraton kasalliklari dunyo miqyosida eng keng tarqalgan kasallik sifatida qayd etilmoqda. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda saraton bilan kasallanish darajasi o'tgan yillarga nisbatan 30%ga oshgan. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda dunyo bo'ylab 20 milliondan ortiq yangi saraton holatlari qayd etilgan va bu ko'rsatkich har yili o'rtacha 2.5%ga oshib bormoqda. Bu holat albatta hozirgi rivojlanib borayotgan tibbiyot uchun katta zarar hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra:

- Eng ko'p uchraydigan saraton turlari: o'pka saratoni (11.6%), ko'krak saratoni (11.3%), yo'g'on ichak saratoni (10.2%);
- Eng ko'p o'lim holatiga sabab bo'lchi saraton turlari: o'pka saratoni (18.4%), yo'g'on ichak saratoni (9.2%), jigar saratoni (8.2%);
- Saratonning 70% holatlar past va o'rta daromadli mamlakatlarda aniqlanadi

Bu ma'lumotlardan shunday xulosa qilishimiz zarurki saraton qanchalik dolzarb muammo va uni davolash uchun samarali davolash usullarini ishlab chiqish lozim. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda tarqalish darajasi yuqori bo'lib, bu profilaktika va erta diagnostika yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganining asosiy sababidir. Eng ko'p uchraydigan o'pka saratonining asosiy sababi tamaki mahsulotlari iste'moli, ekologik muhit va xavfli ishlab chiqarish sharoitlaridir. Albatta hozirgi kunda ishlab chiqarish ko'pligi sababli ekologiyaga ham zarar yetmoqda va bu inson salomatligiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti.

Saraton kasalligining aniq sababi hozirgacha aniqlanmagan aynan bir sabab tufayli kelib chiqadi deyolmaymiz, etiologik qarashlar va tahlillardan xulosa qilib quyidagilarni aytib o'tish mumkin:

- Irsiy nuqsonlar - Li-Fraumeni sindromi suyak saratoni, ko'krak saratoni, yumshoq to'qimlar sakromasi, miya saratoniga olib kelishi mumkin;
- Turmush tarzi bilan bog'liq- yuqorida aytib o'tilganidek tamaki mahsulotlarining is'temol qilish natijasida o'pka saratoni, spirtli ichimliklar sababli oshqozon osti bezi saratoni;
- Ba'zi bakteriyalar va viruslar sababli Papiloma virusi(HPV) bachadon bo'yin saratoniga olib kelishi mumkin, gepatit virusi jigar saratoniga;
- Gormonal o'zgarishlar sababli ko'proq ayollarda ko'krak saratoni, esterogen gormonimimg o'zgarishlari sababli bachadon saratoniga sabab bo'lishi mumkin.

Saraton kasalligining davolash usullari:

1. Jarrohlik usuli - saratoni davolashning eng qadimiy va samarali usullaridan biri hisoblanadi. U malign o'smani va unga yaqin joylashgan to'qimalarni olib tashlash orqali amalga oshiradi.

Qo'llanishi: Jarrohlik asosan mahalliyashtirilgan (metastaz bermagan) o'simtalar uchun qo'llaniladi. Masalan ko'krak bezi saratoni ko'pincha jarrohlik, radiatsiya terapiyasi, kimyoterapiyaning kombinatsiyasi bilan davolanadi.

Statistika: Tadqiqotlarga ko'ra, ko'krak bezi saratoni bilan og'riqan bemorlarning 60-70%ida jarrohlik amaliyoti qo'llaniladi.

2. Kimyoterapiya usuli - bu tanadagi tez o'sadigan hujaralarni o'ldirish uchun kuchli kimyoviy moddalardan foydalaniladigan dorivor davolash usuli

Qo'llanishi: Kimyoterapiya tananing turli qismlariga tarqalgan o'simtalar uchun qo'llaniladi. Bu usul tanaga kiritilgan kimyoviy moddalardan iborat bo'lib, ular hujayra bo'linish jarayoniga ta'sir qiladi va saraton hujayralari ko'paytirishni to'xtatish uchun ularni nishinga oladi.

Statistika: Ma'lumotlarga ko'ra, kimyoterapiya qo'llanilgan bemorlarning 70-90% da o'simta hajmi kichrayadi yoki uning o'sishi to'xtaydi.

3. Radioterapiya usuli - ionlantiruvchi nurlanish yordamida saraton hujayralarini yo'q qilish usuli bo'lib hisoblanadi.

Qo'llanishi: Bu jarayonda saraton hujayralari va to'qimalariga yuqori energiyali gamma nurlari ta'sir qilish uchun yaratilgan mashina yordamida amalga oshiriladi.

Statistika: Radioterapiya qo'llanilgan bemorlarning 50-60% ida kasallikning qaytalanish xavfi kamayadi.

4. Immunoterapiya usuli – organizmning o'z immun tizimini saratonga qarshi kurashishga rag'batlantiradigan usuli hisoblanadi.

Qo'llanilishi: Immunoterapiya tananing immunitet tizimini kuchaytirishga qaratilgan, shunda antikorlar saraton hujayralariga qarshi kurashadi va kuchaytirilgan immunitet tizimi yordamida ularni yo'q qiladi.

Statistika: Immunoterapiya qo'llanilgan bemorlarning 20-30% ida uzoq muddatli remissiya kuzatiladi.

5. Gen terapiyasi - shikastlangan genlarni asl nusxasi bilan almashtirish orqali saraton hujayralarini yo'q qilishga qaratilgan yangi usul.

Qo'llanilishi: Ushbu usul hozirda eksperimental bosqichda bo'lib, faqat bir nechta muhim holatlarda amalga oshiriladi.

Statistika: Hozircha gen terapiyasining samaradorligi bo'yicha keng qamrovli statistik ma'lumotlar mavjud emas, chunki u klinik sinovlar bosqichida.

Xulosa Turli davolash usullarini ko'rib chiqdik, ularni taqqoslaydigan bo'lsak, jarroxlik va radioterapiyada yaxshi natijalarga erishilganligini kurishimiz mumkin, kimyoterapiya va immunoterapiya ham anchagina o'z samarasini bergan. Ammo hamma saratonga chalingan bemorlar ham shu kabi davolanish usullaridan foydalana olmaydilar, ularning sabablaridan biri moddiy muammo yoki istiqomat qilayotgan hududida bunday imkoniyatlarning mavjud emasligidir. Shunday bo'lsada, rivojlangan mamlakatlarda ham saratonga hali ham to'liq davolash usullari ishlab chiqilmadi, ammo yaqin kelajakda gen terapiyasi va aniq onkologiya sababini aniqlashning usuli topiladi albatta, buning uchun ilmiy izlanishlar tajriba ortirishimiz zarurdir.

Albatta, saratonni davolashda faqatgina dori-darmonlar yoki davolash usullari emas balki bemorning emotsional ruhiyati, uning yaqinlarining uni qo'llab quvvatlashi ham muhim o'rin egallaydi shu sababli saratonga chalingan har bir bemor, yaqin insonimizga ruhan uni qo'llab-quvvatlash har birimizning kichik bir vazifamiz bo'lishi lozimdir.

Saratonning oldini olish va unga chalingan bemorlarga samarali yordam berish uchun tavsiya sifatida: ularga sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va ulardan sog'liklari e'tiborsiz bo'lmasliklari talab etiladi.

Yangi chora-tadbirlar ya'ni har 3oyda insonlar orasida tibbiy ko'rik o'tkazilishini ta'kidlashimiz kerak. Va albatta, tibbiy xizmatni oshirish va uni arzonlashtirish zarurdir. Saraton kasalligini endigina boshidan o'tqazayotgan insonlarga o'smalar ko'payib ketmasidan turib kerakli muolajalarni qilish uchun ularga sharoit yaratish lozimdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. World Health Organization (WHO). (2023). Cancer treatment guidelines. WHO. Retrieved from <https://www.who.int/cancer-treatment>
2. National Cancer Institute (NCI). (2023). Types of cancer treatment. National Institutes of Health (NIH). Retrieved from <https://www.cancer.gov/about-cancer/treatment/types>
3. American Cancer Society (ACS). (2023). Latest cancer treatment breakthroughs. ACS. Retrieved from <https://www.cancer.org/research/latest-findings.html>
4. Mayo Clinic. (2023). Cancer diagnosis and treatment options. Mayo Clinic. Cancer therapy. Elsevier. Retrieved from <https://www.elsevier.com/en-xr/health/oncology>